

**Sh A R T N O M A №210807
(ELEKTR ENERGIYASI YETKAZIB BERISH TO'G'RISIDA)**

Chiroqchi tumani

«28» Yanvar 2022 yil

Ushbu shartnomaga asosan bir tomondan Chiroqchi tuman Elektr ta'minoti korxonasi nomidan harakat qiluvchi korxona raxbari Sh.Samadov keyingi o'rnlarda «Ta'minotchi» deb yuritiladi, hamda ikkinchi tomondan Chiroqchi tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi nizomiga asosan harakat qiluvchi mudir Sh.Boyjigitov (keyingi o'rnlarda «Iste'molchi» deb yuritiladi) ushbu shartnomaga quyidagilar haqida tuzib imzolandi.

1. ShARTNOMANING MOHIYATI

1.1 Ushbu shartnomaga bo'yicha «Ta'minotchi» «Iste'molchi»ning buyurtmanomasiga muvofiq ulangan tarmoq orqali elektr energiyasi yetkazib berishni, «Iste'molchi» esa mazkur sharnomaning 1-ilovasida belgilangan quvvatda elektr energiyasini qabul qilib olish va ilova qilinadigan jadval asosida byudjetdan ajratilgan mablag'lar hisobidan haq to'lashni o'z zimmasiga oladi.

1.2 Byudjet tashkilotining yil davomida smeta xarajatlariga kiritiladigan o'zgarishlar doirasida xizmat ko'rsatuvchi, xizmat oluvchilar tomonidan o'zaro kelishilgan holda shartnomaga summasiga o'zgartirishlar kiritishga haqlidirlar.

1.3 Elektr energiyaning shartnomaga tuzilgan kundagi amalda bo'lган tarif bo'yicha quvvatning narxi 450 (to'rt yuz ellik) so'mni tashkil etadi.

Yil Ggg	yanvar	fevral	mart	apr el	ma y	iyu n	iy ul	avg st	sentya br	oktya br	noya br	deka br	jami
kVt. s.	20000	20000	20000	0	0	0	0	0	0	0	0	0	60000
So'm m	90000 00	90000 00	90000 00	0	0	0	0	0	0	0	0	0	270000 00

1.4 shartnomaning umumiy qiymati 27 000 000.00 (yigirma yetti million) so'mni tashkil qiladi.

2. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

Iste'molchi»ning huquqlari:

a.«Ta'minotchi»dan shartnomada ko'rsatilgan miqdordagi elektr energiyasini elektr tarmoqlarining bo'linish chegarisiga yetkazib berishni;

b. Elektr tarmoqlarining balans bo'yicha tegishlilik chegarisida elektr energiyasining sifat ko'rsatkichlarini shartnomaga standartlarda belgilangan miqdorda cheklashni;

d. Elektr energiyasi iste'molining oylik shartnomaviy miqdorini choraklik miqdor doirasida joriy chorak mobaynida 2 marta (1 va 2 oylarda ular tugaguncha 10 kundan kechikmay) qayta taqsimlanishini «Ta'minotchi»dan talab qilishga haqlidir;

e. Elektr tarmoqlarining bo'linish chegarisida zarur sifatga muvofiq bo'lмаган elektr energiyasi yetkazib berilganda «Iste'molchi» o'z xohishiga ko'ra;

a. muddatlar buzilgan yoki zarur sifatga muvofiq bo'lмаган holda yetkazib berilgan elektr energiyasini qabul qilishni haqini to'lashni rad etishga;

b. «Ta'minotchi»dan shartnomaga shartlarini bajarmaslik natijasida yetkazilgan zararni, boy berilgan foydani qoplanishini talab qilishga haqlidir;

2.1 «Iste'molchi»ning majburiyatları:

a. Hisobga olish joyi elektr tarmoqlarning «Ta'minotchi» bilan balansi mansubligi bo'yicha bo'linish chegarisida o'tkazish (iste'molning hisobga olinishi bo'linish chegarisida amalga oshirilmagan vaziyatlarda).

b. Elektr tarmoqlari, asbob-uskunalarining tegishli texnik holatini va xafvsizligini ta'minlash;